



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH 290-296	
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025**Accepted:** 1 February 2025**Published:** 10 Febrary 2025*Article / Original Paper***CONDITIONAL AND TYPOLOGICAL FACTOR IN MODAL WORDS:
SEMANTIC DIVERSITY****Kaxarova Iroda Sidikovna**

Uzbekistan State World Languages University

Associate Professor, Doctor of Science (DSc)

E-mail: iroda.kaharova@mail.ru

Abstract. Modal concepts are lexicalized because they form the basis of human knowledge and thought. Their use in language and speech reveals the psychological and philosophical foundations of the fundamental connection between language and thought. Modal words are divided into purely modal and functionally modal, each of which has its own historical forms.

The use of modal verbs is mainly divided into two categories: "epistemic" and "deontic". Gnostic modalities perform the function of making judgments about the probability of the existence or non-existence of something. Alethic modality, like epistemic modality, is based on the ability to perceive sentences as representations that enter into certain logical relations. Rational modality and existential modality are clearly reflected in politeness.

Keywords: modal word, modality of rationality, existential modality.

**MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL:
SEMANTIK TURLANISH****Kaxarova Iroda Sidikovna,**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Modal tushunchalar inson bilishi va tafakkurining asosini tashkil etishi sababli ular leksiklashtirilgan. Til va nutqda ularning qo'llanishi natijasida til va tafakkur o'tasidagi fundamental aloqaning psixologik va falsafiy asoslari namoyon bo'ladi. Modal so'zlar sof modallar va vazifadosh modallarga bo'linadi, ularning tarixiy ko'rinishlari mavjud.

Modallarning qo'llanilishi, avvalo, "epistemik" va "deontik" deb ikkiga ajralib turadi. Gnosemik modallar biror narsaning mavjudligi yoki bo'lmasligi ehtimoli haqida hukm chiqarish vazifasini bajaradi. Aletik modallik epistemik modallik kabi takliflarni o'ziga xos mantiqiy munosabatlarga kiradigan tasavvurlar sifatida qabul qilish qobiliyatiga tayanadi. Ratsional modallik va ekzistensial modallik xushmuomalalikda o'z aksini yorqin namoyon etadi.

Kalit so'zlar: modal so'z, ratsionallik modallik, ekzistensial modallik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N46>

Kirish. So'zlovchining o'z fikriga qo'shimcha munosabatini bildiruvchi so'zlar modal so'zlar hisoblanadi. Ular orqali haqiqat, bilish, majburiyat, mavjudlik tushunchalari yuzaga chiqariladi.

Modallik har doim tilshunoslik, falsafa va psixologiyaning muhim sohasi bo'lib kelgan. Tilshunoslikda modallik tilni o'zlashtirishdan tortib, til o'zgarishigacha bo'lgan bir qator jarayonlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, modal tushunchalar inson bilishi va tafakkurining

asosini tashkil etadi, shuning uchun ularni leksiklashtirish va tabiiy tilda qo'llash nazariyalari til va tafakkur o'rtasidagi fundamental aloqaga oid turli xil psixologik va falsafiy nuqtai nazarlarni o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turli olimlarning modal va modallik masalalariga juda ko'p turli yo'llar bilan murojaat qilganliklari bu boradagi masalalarning murakkabligidan, har qanday mutlaqo sodda va to'liq ishonarli tahlilga yetib borish qiyinligidan dalolatdir.

Modal so'zlar leksik ma'no ifodalama-sa-da, turli gapda turli grammatik ma'nolarni bildirib keladi. Shunga ko'ra, ularni o'zbek tili sohasida quyidagi ma'no turlari bo'yicha tasniflab ko'rsatish mumkin:

1. Ishonchni bildiruvchi modal so'zlar: *albatta, shaksiz, shak-shubhasiz, shubhasiz.*
2. Tasdiqni bildiruvchi modal so'zlar: *darhaqiqat, haqiqatan, chindan, to'g'risi.*
3. Gemonni bildiruvchi modal so'zlar: *ehtimol, chamasi, balki, aftidan, shekilli, taxminan.*
4. Fikrni xulosalash uchun ishlataladigan modal so'zlar: *xullas, umuman, demak.* Bu so'zlar aytilayotgan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligini ham bildiradi.
5. Fikrning tartibini bildiruvchi modal so'zlar: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan va h.k.*
6. Fikrning dalillanishini bildiruvchi modal so'zlar: *jumladan, masalan.*
7. Achinish, afsuslanishni bildiruvchi modal so'zlar: *attang, esiz, afsus, afsuski.*
8. Fikrning manbaini bildiruvchi modal so'zlar: *menimcha, uningcha, sizningcha, bizningcha, aytishlaricha.*
9. Quvonchni bildiruvchi modal so'zlar: *xayriyat, shukrki, baxtimga.*
10. Rozilik, tasdiqlashni bildiruvchi modal so'zlar: *xo'p, ha, mayli, bo'pti, ma'qul, mumkin.*
11. Inkorni bildiruvchi modal so'zlar: *yo'q, mutlaqo, aslo.*
12. Ajablanishni bildiruvchi modal so'zlar: *ajabo.*
13. Zaruriyatni bildiruvchi modal so'zlar: *kerak, zarur, lozim, shart.*

Bundan anglashiladiki, tilda markaziy modal ma'nolar bilan periferik ma'nolar mavjud. Demak, ularni farqlash lozim. Har qanday tilda, jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham, albatta, grammatik tizimni modal ma'nolarning markaziy to'plamining bir qismini ifodalagan taqdirdagina modal deb ta'riflash mumkin. Ammo modallikni tadqiq qilishning eng qiziq jihat shundaki, boshqa modal tizimlar ko'pincha shunday ma'nolarni ifodalaydi.

Yuqoridagi tasnidan anglashiladiki, modallarni ko'p o'lchovli ramka nuqtai nazaridan, ya'ni freym sifatida tahlil qilish mumkin. Bunda har bir o'lchov bir-biriga bog'liq semantik xususiyatlar to'plamini ko'rsatadi. Modallarning bir-biriga mos kelmasligi ularning ma'nolarida nomuvofiqlik elementlari borligini ko'rsatadi.

Ingliz tili grammatikasida modal tizimdan murakkabroq soha yo'qdir. So'nggi yillarda modallik va ingliz modallariga oid ko'plab nashrlar amalgalash oshirilgan. Bu o'rinda, birinchidan, "modallik" deb ataladigan grammatik yoki semantik-grammatik kategoriya mavjudligini, ikkinchidan, ingliz tilida modal fe'llar borligini e'tiborga olish lozim.

Modallik umumiyligi, umumjahon, tipologik kategoriyadir. Uni o'rganishda uchta masala e'tiborga olinishi lozim:

- modallikning umumiyligi tabiat;
- tildagi rasmiy tizim ekani;
- alohida turkumga tegishli so'zlar (konseptlar) ekani.

Demak, modallikning uch turini nafaqat ma'nolari, balki har biri uchun qo'llanilgan shakllari bo'yicha ham ajratish mumkin.

Jon Lyonsning modallik so'zlovchining "fikri va munosabati" bilan bog'liqligi haqidagi ta'rifi juda o'rnlidir [3].

Ingliz tilidagi modal fe'llar tizimi ham juda xilma-xildir. Ular bilan ifodalangan ma'nolar ko'p darajada modallikning tipologik hisobiga kiritilishi kerak bo'lgan ma'nolarni ifodalaydi. Jumladan, modallikning epistemik va deontik kabi ikkita eng asosiy semantik turi mavjud. Masalan:

Bugun mehmon kelishi mumkin.

Mehmon hozir kelsa kerak.

Mehmon hozir kirib kelishi mumkin.

Mehmon hozir kelishi kerak.

Bu gaplarning barchasida ehtimoliy talqin, taxmin ma'nosi mavjud bo'lsa-da, dastlabki uchtasida sof taxmin va ehtimoliy ma'no, to'rtinchisida esa shart ma'nosi anglatilmoxda. Bundan tashqari, ikkinchi va uchinchi gaplarda mehmon kirib kelar ekan, tinglovchi unga ruxsat berishi va uni qabul qilishi, kutib olishi majburiyatini yuklayotgani seziladi. Bunday ma'no noziklari esa kontekst orqali anglashiladi.

Modallarning bu ikki xil qo'llanilishi "epistemik" va "deontik" deb ajralib turadi. Ulardan biri mohiyatan haqiqat to'g'risida hukm chiqarsa, ikkinchisi harakatlar, holatlar yoki hodisalarga ta'sir qilish va nima anglatilishi bilan bog'liq. "Mumkin" so'zi, odatda, oddiy tilda epistemik ma'noda qo'llaniladi.

Epistemik modallik har doim "subyektiv" bo'lishi, xulosa bilan bog'lanishi jihatidan xarakterlanadi. U "maqsad" bilan bog'liq bo'lmaydi.

Deontik modallikning ham oddiy tilda o'rni bor. Unga ko'ra, odatda, modal fe'llar majburiy, ruxsat etilgan yoki taqiqlangan narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo epistemik modallik singari u ham subyektivdir. Negaki, so'zlovchi majburiyat beruvchi, ruxsat beruvchi yoki taqiqlovchi hisoblanadi.

Epistemik va deontik modallik so'zlovchiga tegishlidek ko'rinsa-da, dinamik modallik gap subyektining qobiliyati va ixtiyori bilan bog'liq bo'ladi. Epistemik va deontik modallik farqini imkoniyat hamda zarurat nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin. Epistemik modallikni "mumkin/kerakli", deontik modallikni "mumkin/zarur" deb ifodalash to'g'ri bo'ladi. "Zarur" so'zi epistemik modallikni ifodalash uchun ishlatilmaydi.

"Shart" modalligi "ichki" ruxsat, majburiyat va iroda, "tashqi" imkoniyat / qobiliyat, zarurat va bashorat (kelajak), hodisalar ustidan qandaydir inson nazoratini o'z ichiga olgan ichki modallik hamda tashqi modallikkdan iborat "insonning nima sodir bo'lishi yoki bo'lmasi haqidagi mulohazasi" o'rtasida sodir bo'ladi. Bu, aslida, deontik modallikni qolganlaridan ajratib turadi. Shuningdek, epistemik / ildiz modallikdan ham farqlanadi.

Tahlil va natijalar. Deontik modallik taklifni ham anglatadi. U har doim kelajakka tegishli bo'ladi, chunki biz boshqalarga faqat kelajakda harakat qilish uchun ruxsat berishimiz yoki ularga majburiyat yuklashimiz mumkin. Masalan:

Ertaga kelishingiz mumkin/kerak.

Siz hozir kirishingiz mumkin/kerak.

Dinamik modallik bilan taklifning vaqt ma'lumoti odatda kelajakka tegishli bo'ladi.

Epistemik modallik eng oddiy modallik turi hisoblanadi. Sintaksisda ham, semantikasida ham u boshqalardan eng aniq ajralib turadigan va eng katta ichki qonuniyat, to'liqlikka ega bo'lgan modallik turidir.

Epistemik modallik – so'zlovchining ehtimollik va bashoratlilikni baholashi. U so'zlovchi tomonidan qabul qilingan munosabatning bir qismi bo'lib, mazmundan tashqarida turadi. Bu holda uning "e'lon qiluvchi" sifatidagi nutq roliga munosabati oydinlashadi.

Epistemik modallik va modallikning boshqa turlari o'rtasidagi farq juda aniq bo'lsa-da, deontik va dinamik modallik o'rtasidagi bo'linish chizig'ini aniqlash unchalik oson emas. Shunga qaramay, ularni ikkita alohida tur sifatida ko'rib chiqishni oqlaydigan semantik va sintaktik xususiyatlar mavjud.

Deontik modallik asosan bajaruvchidir. Deontik modaldan foydalangan holda so'zlovchi haqiqatda ruxsat berishi (may, can), majburiyat qo'yishi (must) yoki va'da yoki tahdid (shall) berishi mumkin. Deontik va dinamik modallikning farqi shundaki, birinchisi ijro etuvchi yoki "diskursga yo'naltirilgan", ikkinchisi esa yo'q. Bu imkoniyat va zarurat nuqtai nazaridan yetarlicha aniq ko'rindi.

May va *Can* – ularning ba'zi deontik va oddiy epistemik / ildiz qo'llanilishida bir-birini almashtirish mumkin.

Deontik modallarga nisbatan jiddiy grammatik cheklolalar mavjud. Darhaqiqat, aynan shular deontik modallikni alohida tur sifatida belgilaydi.

Modallik yoki taklif inkor etilishi, harakat sodir bo'lmasligi uchun ruxsat berish yoki ruxsat berishni rad etish mumkin va hokazo.

Qizig'i shundaki, modallikni inkor eta olmaydi va rad eta olmaydi (mumkin emas), ya'ni ular ruxsatni rad etadilar, holbuki ular taklifni inkor etmaydilar, majburiyat oladilar, ammo harakat sodir bo'lmaydi.

Deontik modallarda o'tgan vaqt uchun o'tgan zamon shakllari bo'lishi mumkin emas. Modallikda ham, hodisada ham o'tgan vaqtga ishora bo'lishi mumkin emas. O'tmishda sodir bo'lgan voqealar bilan bog'liq holda nutq so'zlashda ruxsat berish, majburiyat qo'yish yoki majburiyat berish mumkin emas. Biroq xabar qilingan nutqda o'tgan zamon shakli bo'lishi mumkin.

Gnosemik modallarning vazifasi biror narsaning mavjudligi yoki bo'lmasligi ehtimoli va hokazolar haqida hukm chiqarishdir. Epistemik modallik, ya'ni harakatlar, holatlar, hodisalar va boshqalar emas, balki atamaning qat'iy ma'nosi bilan aytganda, takliflarning modalligidir. Masalan:

To'y avgustda bo'lishi kerak.

Avgustda to'y bo'lishi kerak.

Bu jumlalar, albatta, dinamik yoki hatto deontik ma'noda zarur bo'lgan hodisaga ishora qilishi mumkin, ammo ular so'zlovchi nima sodir bo'lishini ko'rsatishi va shuning uchun epistemik talqin qilinishi ehtimoli ko'proq. Ammo noaniqlik saqlanib qolmoqda.

Nasiba to'uda bo'lishi mumkin, lekin u bo'lishi shart emas.

Bundagi parafras Nasibaning to'ydaligi haqidagi yagona mumkin bo'lgan xulosa emas" ("kerak emas"), "Nasiba to'uda yo'qligi mumkin bo'lgan xulosa" ("mumkin-yo'q") ma'nosida. Bunda tasdiqlangan imkoniyat va inkor etilgan zarurat o'rtasida qarama-qarshilik mavjud.

Aletik modallik ham borki, u ham epistemik modallik kabi takliflarni o'ziga xos mantiqiy munosabatlarga kiradigan tasavvurlar sifatida qabul qilish qobiliyatiga tayanadi. Aletik

tushunchalar bir-biridan farq qiladi, chunki ular ongga bog'liq bo'lмаган mavhum obyektlar sifatida qaraladigan takliflarni o'z ichiga oladi. Garchi aletik modallikning oddiy tilda o'rni kam bo'lsa-da, u zaruratni ko'rsatish uchun ishlataladi. Aletik (yoki mantiqiy) modallik modal tushunchadan kelib chiqadi. Modallikning bu turi mantiqiy zarurat va fikrlash egasining aqliy mazmunidan mustaqil ravishda aniqlangan imkoniyatga tegishli, ammo mutlaq ma'noda (mavhum) taklif va takliflar to'plami o'rtasidagi munosabatlardir. Garchi ular modallikning har xil turlariga mos kelsa ham, aletik tushunchalarni o'zlashtirish qobiliyati, asosan, epistemik tushunchalarni qo'llash qobiliyati bilan bir xildir.

Ekzistensial modallikda inkor bilan mantiqiy ekvivalentlik qoidalari boshqa modalliklarda, ayniqsa, epistemik bilan chambarchas parallel bo'ladi.

"Kerak" tushunchasi ham gnosemik mulohazalar, ham axloqiy majburiyatlarni qamrab oladi. Hech bir holatda "kerak" so'zi hech qanday qat'iy belgilangan ma'noda ishlatilmaydi. Aytaylik, "kerak" (should) rasmiy modaldir. U zarurat jihatni bilan bog'liq.

Shuningdek, "will" ham rasmiy modallardan biri bo'lib, imkoniyat va zarurat tushunchalarini ifodalab keladi. Aytish mumkinki, ular kelajakdagi vaqtini ko'rsatish uchun ishlatalishi jihatidan boshqa modallar bilan semantik jihatdan umumiylklarga ega.

"Shall" deontik modal sifatida qaralishi mumkin, chunki u so'zlovchi tomonidan biror narsa sodir bo'lishini bildiradi.

Modallikning yana bir turi neytral (yoki shartli) vaziyatda nima mumkin yoki zarurligini ko'rsatish uchun ishlataladigan "**can**" bilan ifodalanadi.

Dinamik modallikning ikkita kichik turi borligi, neytral (yoki shartli) va mavzuga yo'naltirilganligi ta'kidlanadi.

Ratsional modallik va ekzistensial modallik ham o'zaro farqlanadi. Ular xushmuomalalikda o'z aksini yorqin namoyon etadi. Binobarin, odobli so'rovlar uchun modallardan foydalanish kuzatiladi. Masalan, "Menga atala pishirib bera olasizmi?"

Bu gap so'roq shaklida bo'lsa-da, u so'rov, iltimos, taklif sifatida qabul qilinishi kerak. Murojaat qiluvchining uni o'zining harakat qobiliyati yoki xohishi haqidagi oddiy savollar sifatida qabul qilishi va "ha" deb javob berishi, lekin hech qanday harakat qilmasligi (lekin "ha" – bu kerakli harakat bilan birga to'liq qabul qilinadigan javob ekani) e'tiborga olinmog'i lozim.

Modallikning barcha turlaridan faqat epistemik modallik boshqa turlardan ham sintaktik, ham semantik jihatdan butunlay ajralib turadi. Aynan shuning uchun ham ko'pchilik olimlar "epistemik" va "ildiz"ni ikki tomonlama farqlash bilan kifoyalanishgan. Masalan, Anna Papafragu "Modallik va semantika-pragmatik interfeys" nomli tadqiqotida epistemik modal belgilarning paydo bo'lishi insonning aql nazariyasining rivojlanishi natijasi sifatida ko'rib chiqilgan.

Undov, taqlidlar semantik jihatdan ko'p ma'noli bo'lsa, modallarining ko'proq bir ma'noli ekani ko'rindi. Modallar nutq va harakat modalligi deb ataladigan ikki holatni va epistemik ma'nolarning tarixiy rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Asosiy/tipik deb hisoblangan sezgilar ko'pincha tilning ontogenetik va filogenetik rivojlanishida birinchi bo'lib paydo bo'ladi.

Ko'pincha modalni o'z ichiga olgan gap bir necha usulda talqin qilinishi mumkin, ya'ni deontik, oddiy ildiz yoki epistemik talqinni olishi mumkin. Ushbu va shunga o'xshash holatlarda mo'ljalangan talqin grammatikada pragmatik asosda tanlanadi.

Muhokama. Svitser modallarning semantikasi uchun asos sifatida Talmiyning “kuch dinamikasi” tushunchasidan foydalanadi [2]. Ildiz modallari tashqi dunyodagi kuch-dinamik tushunchalarni kodlash uchun olinadi. Masalan, “may – mumkin” potensial va “must – majbur”, ammo mavjud bo’lmagan to’siqning mavjudligini kodlasa, “must – kerak” ijobiy majburlash va “can – mumkin” bajaruvchining ijobiy qobiliyat, potensial, energiya, kuch bo’lishi mumkin. Bu tushunchalar metaforik tarzda ichki, “aqliy” sohada kengaytiriladi va epistemik ma’nolarni keltirib chiqaradi. “May – mumkin” va “must – kerak” fikrlash sohasida harakat qiluvchi to’siqlar yoki kuchlarni bildiradi.

Kuchsiz dalillar (*aftidan, shekilli* va boshqalar) kuchning pasaygan darajasini ko’rsatadi; kuchli dalillar (*aniqli, anig’i* va h.k.) yuqori quvvat darajasini bildiradi. Asosiy taklifga biriktirilgan kuch darajasiga ta’sir qilish orqali zaif va kuchli dalillar tinglovchiga tavsiya etilgan kuch darajasiga ham ta’sir qiladi.

Nutq-harakat modalligi so’zlashuv o’zaro ta’sirida modal tushunchalarni qo’llash natijasidir. So’zlovchi (yoki umuman odamlar) gapda aytilgan gapni aytishga majbur yoki (taqiqlanmagan).

Modal so’zlar asl (sof), ya’ni faqat tilda modal so’z sifatida uchrashi yoki boshqa so’z turkumidan modal so’z sifatida qabul qilingan bo’lishi mumkin. Ular vazifadosh qilib olingan bo’ladi. Shunga ko’ra, modal so’zlarni ikkiga bo’lib o’rganish mumkin:

1. Sof modal so’zlar – faqat modal so’z sifatida uchrashi yoki boshqa so’z turkumidan modal so’z sifatida qabul qilingan bo’lishi mumkin. Ular vazifadosh qilib olingan bo’ladi. Shunga ko’ra, modal so’zlarni ikkiga bo’lib o’rganish mumkin:

2. Vazifadosh modal so’zlar – aftidan, chamasi, ehtimol, balki, umuman, taxminan, shubhasiz, to’g’risi, haqiqatdan. Bular ot, sifat, ravish kabi so’z turkumlaridan o’sib chiqqanligi kuzatiladi.

Jadval 1.

Modal so’z	Ot
Chamasi , ertaga qor yog’adi.	Test yechganimizda ko’pincha Abdulvositning chamasi to’g’ri chiqardi.

Shuni ta’kidlash lozimki, o’zbek mumtoz adabiy tilida qo’llanuvchi ayrim modal so’zlar hozirgi so’zlashuv nutqida deyarli qo’llanmaydi. Ularning qo’llanishi badiiy uslubdagina kuzatiladi. Bundan modal so’zlarning diaxron va sinxron hamda og’zaki yoki badiiy uslubga daxldorligi oydinlashadi.

Ingliz tilida “**can**” fe’li va uning o’tgan zamon shakli **could** qila olmoq, uddalamoq, qo’lidan kelmoq tushunchalarini modal holatda ochishga xizmat qilsa [1], **may, might** modal fe’llari vositasida biror ishni bajarish uchun imkon borligi bildiriladi. Ular o’zbek tilida ehtimol, balki, shoyad kabi modal so’zlarga teng keladi.

Must va **should** zaruriyat va majburiyat mazmunini anglatuvchi modal fe’llar bo’lib, ma’no jihatidan o’zbek tilidagi kerak, zarur, lozim modal so’zlariga mos tushadi. Shuningdek, **ought to, necessary, need** so’zları ham ingliz tilida zarur, kerak, darkor, lozim, zaruriy, kerakli, zarur degan tushunchalarda zaruriyat va majburiyat ma’nolarini ifodalovchi modal so’zlar sifatida qo’llanadi.

Possible so’zi uch ma’noda: 1) mumkin, ehtimol; 2) bo’lishi (yuz berishi) mumkin bo’lgan; 3) amalga oshirsa bo’ladigan ish-harakatlarga modal munosabatni anglatib keladi. **Impossible** so’zi esa, aksincha, amalga oshmaydigan, bo’lishi mumkin bo’lmagan ish-harakatga ishora qiladi [1].

Verified – haqiqatan, chindan ham, darhaqiqat, rosti bilan [1] degan ma'nolarda keltirilib, fikrning chinligini tasdiqlashga va kishilarni bunga ishontirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa shuki, modal so'zlar turli tillarda fikrning voqelikka bo'lgan munosabatlarini turlicha ko'rinishlarda ifodalovchi rasmiy grammatik, funsional-semantik kategoriyadir. Modal so'zlar umumiyligi ma'nolari jihatidan bir xildir. Modallik shaxs va zamon ma'nolari bilan bog'lanadi, obyektiv va subyektiv bo'ladi. Modallik mazmun olamiga yoki epistemik dunyoga emas, balki suhbat olamiga nisbatan qo'llaniladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Butayev Sh., Irisqulov A. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at. – Toshkent, 2008. – B. 264.
2. Talmy Leonard. "Force dynamics in language and cognition". 1988. *Cognitive science* 12, p. 49-100;
3. Sweetser Eve E. From etymology to pragmatics: Metaphorical and cultural aspects of semantics structure. Cambrige: Cambridge University Press. 1990.
4. John Lyons. Semantics. Cambridge University Press, 2012. P. 725-786
<https://doi.org/10.1017/CBO9780511620614.009>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).